

IJTIMOYIY SOHAGA OID INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH

Ziyayev Jamshid.

Toshkent moliya instituti talabasi

Ijtimoiy soha sog'liqni saqlash, ta'lim, uy-joy-kommunal xo'jaligi, madaniyat, sport va turizm, ijtimoiy xizmat ko'rsatish va ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy sug'urta va pensiya ta'minotini mujassamlashtirgan.

Ijtimoiy soha tarmoqlari tomonidan taqdim etiladigan ne'matlar faqat bu ne'matlardan foydalanayotgan shaxs manfaati uchungina emas, balki butun jamiyat manfaatlariga ham xizmat qiladi. Masalan, kasalliklarning oldini olish va bemorlarni davolash aholi o'rtasida kasallanish darajasini pasaytiradi va epidemiya xavfini kamaytiradi. Yalpi savodxonlik jamiyat uchun beqiyos imkoniyatlar yaratadi, iqtisodiyotni jadal rivojlanishining hal qiluvchi omillaridan biriga aylanadi. Madaniy faoliyati ijtimoiy qadriyatlarining ommalashishi va ularning odamlar tomonidan o'zlashtirilishiga, jamiyatni jipslashtirishga yordam beradi. Ijtimoiy soha tarmoqlarining faoliyati davlat va jamiyat tomonidan muttasil baholanib boradi. Jumladan, turli ijtimoiy guruhlar tomonidan tibbiy yordam va ta'lim olish imkoniyati ijtimoiy adolat nuqtai nazaridan baholab boriladi. Tibbiy xizmatdan va madaniyat muassasalaridan foydalanish, ta'lim olish imkoniyati xalqaro tashkilotlar va ko'pgina davlatlarning konstitutsiyalarida insonning ajralmas huquqi sifatida e'tirof etilgan. Ijtimoiy soha tarmoqlarining asosiy xususiyati ular aksariyatining (uy-joy-kommunal xo'jaligini istisno etgan holda) notijorat muassasalar ekanligidir.

Moliyalashtirish deganda korxonalar va tashkilotlarni, turli iqtisodiy dasturlarni va iqtisodiy faoliyat turlarini, qurilayotgan obyektlar va qurilishlarni zarur bo'lgan moliyaviy resurslar bilan ta'minlash tushuniladi.

Mamlakatimizda investitsiya faoliyatini amalga oshirishdagi eng asosiy masala ularni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, ya'ni moliyalashtirish masalasidir. Hozirgi zamon ilmiy qarashlarida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish mexanizmi o'z mohiyatiga ko'ra ikki muhim jihati bilan ajralib turadi. Birinchidan, mikrodarajada moliyalashning bozor mexanizmi amal qiladi; ikkinchidan, makroiqtisodiy darajada davlatning iqtisodiy mexanizmi ham mavjud bo'ladi. Shu sababli investitsiya loyihalarini moliyalash faqat olinadigan foyda motivlaridan tashqari milliy iqtisodiy rivojlanish maqsadiga muvofiq keladigan mezonlar bo'yicha ham baholanadi, lekin bularning iqtisodiyot roliga har xil qaraladi, u yoki bu ilmiy yo'nalishlar vakillari ularning ahamiyatini to'g'risida turli tasavvurlar beradigan eng barqaror talqinlarni ko'rib o'tishga to'g'ri keladi.²⁷


Umuman olganda, investitsiya loyihalarini moliyalash manbalari turlichadir. Masalan, Rossiya davlatida investitsiyalarni moliyalashtirish quyidagi mablag'lar hisobiga amalga oshiriladi:

- investorlarning o'z moliyaviy resurslari va ichki xo'jalik zaxiralari;

²⁷ B.Mamatov, D.Xujamkulov, O.Nurbekov. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. 2014y

- investorlarning qarzga olgan moliyaviy mablag'lari;
- investorlarning jalb qilgan moliyaviy mablag'lari;
- qaytarishlik va qaytarmaslik asosida taqdim qilinadigan byudjet mablag'lari;
- byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari;
- xorijiy investorlar mablag'lari.²⁸

Shuni ham e'tirof etish kerakki, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalarini 4 guruhga bo'lish mumkin.



1.1-rasm.Loyihaviy moliyalashtirish manbalari²⁹

Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning ilmiy asoslangan iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish zaruriyati kuchaymoqda. Mazkur mexanizm investitsiya faoliyatida ish yurituvchi korxonalarda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish ehtiyojlarini ularning ishlab chiqarish dasturidagi belgilangan muddat va miqdordagi pul mablag'lari bilan ta'minlashning muhim vositasi sifatida xizmat qilishi lozim. Bunda mulk shaklidan qat'iy nazar barcha korxonalar, shu jumladan, qo'shma korxonalar moliyalashtirishning bozor tamoyillariga asoslangan manbalaridan foydalanishda teng imkoniyatlarga ega bo'lishi zarur.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda aytish mumkinki, moliyalashtirish deganda investitsiya loyihalarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash tushuniladi. Bu jarayonlarda, albatta, moliyaviy resurslarni taqdim etuvchilar o'z faoliyatini ma'lum tartib va qoidalar asosida amalga oshiradi. Shundan kelib chiqib, moliyalashtirish mexanizmiga moliyalashtirish munosabatlari va moliyalashtirish muassasalarining yig'indisi sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. Chunki bu yerda asosiy obyekt qism-moliyalashtirish munosabatlarini basis sifatida qatnashmoqda. Boshqa qismlar ushbu asos ustiga quriladi. Moliyalashtirish muassasalari mexanizmining boshqa qismi sifatida qatnashadi, ya'ni u barcha pul va kredit oqimlarini boshqarib turadi.

²⁸ Бочаев В.В Методы финансирования инвестиционной деятельности предприятий.ст.36

²⁹ Muallif tomonidan shakllantirildi.